

Bir haftalik malaka oshirish kursida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi "Qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3003-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2018 yil 1 avgustdagi "Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash to'g'risidagi" 74-sonli buyrug'i ijrosini taminlash maqsadida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi PKQT va UMO tarmoq markazida 2018 yil 17- dekabr dan 23-dekabrgacha Suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi "Tuman Irrigatsiya bo'limi boshliqlari" boshliqlari uchun 7 kunlik malaka oshirish kursi tashkil etilgan kursda ishtirok etayotgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati tuman irrigatsiya bo'lim boshliqlari institutimizning "Gidromelioratsiya" fakultetida ta'lim olayotgan Qashqadaryo va Surxondaryolik talaba yoshlar bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda ko'p yillardan buyon suv soxasida ishlab kelayotgan Surxondaryo viloyati Uzun tumani irrigatsiya bo'lim boshlig'i Do'stlik ordeni soxibi Yusup Saidov talaba yoshlarning institutdagi faoliyati, o'quv jarayonini, ularning muammolari ularga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishishdi va dildan suhbatlashdi. Talabalarga hozirgi kunda suv xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar o'zgarishlar haqida ma'lumotlar berildi. O'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini o'zlari ishlab turgan korxonalarida o'tkazishga taklif qilishdi va yordam berishlarini bildirishdi. Institutni shu yil tamomlayotgan talabalarni ishga taklif qilib hamkorlikda birga bir tanu bir jon bo'lib ishlashga chaqirdi.



PKQT va UMO tarmoq markazi bo'limi boshlig'i Javlonbek Qutlimurotov axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov